



## MUROJAAT NOMLARI BIZNES MUZOKARALARDA MUOMALA MADANIYATINING ZAMONAVIY KO'RINISHI SIFATIDA

Xujayeva Ugiloy Tagoymurotovna  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*  
*Koreys tili nazariyasi va amaliyoti*  
*kafedrasи o'qituvchisi*

Muloqot asosan til orqali amalga oshirilganligi sababli, tilda obyektiv ma'no va jamiyat dunyoqarashi mavjud bo'ladi. Til jamiyatning muloqot qilish vositasi bo'lib, tilning yaxlitligida guruhni boshqarish kuchiga ega. Aloqa almashinuvida ishlatiladigan til muloqotning muammosiz davom etishi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Til yordamida muloqot qilishning birinchi bosqichi murojaat birliklaridan foydalanishdir. Murojaat nomlari so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni belgilovchi grammatik shakl bo'lib, 1960-yillardan sotsialingvistikaning rivojlanishi bilan yuzaga kelgan muhim tadqiqot predmetlaridan biridir. U muayyan til jamoasidagi lisoniy tuzilma va ijtimoiy tuzilma o'rtasidagi munosabatni ochib berishda muhim ma'no va funktsiyaga ega bo'libgina qolmay, balki so'zlovchi va tinglovchi joylashgan ijtimoiy vaziyat va ijtimoiy munosabatlarni ham aks ettiradi va ikkinchi darajali vazifani bajaradi.<sup>75</sup>

Murojaat birliklariga oddiygina lug'at yoki grammatica nuqtai nazaridan qaralsa, uni yodlab vaziyatga qarab ishlatish mumkin, deb o'ylash mumkin, ammo murojaat birliklaridan o'rinci foydalanilsagina suhabatni davom ettirish yoki do'stona munosabatlar o'rnatishda muhim omil bo'lishi mumkin.

Murojaat nomlari ikki taraflama xarakterga ega: u o'z mohiyatiga ko'ra taklif yoki fikrni qulay uzatish va qabul qilishda asosiy vazifani bajarishiga qaraganda keng qamrovli bo'lib, ikki yoki undan ortiq insonlarning o'zaro hamkorligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shunga ko'ra murojaat nomlari aktiv bir insonning boshqa inson(lar) bilan muomalaga kirishib, o'zaro muvaffaqiyatli suhabatni tashkillashtirib, muloqotning optimal darajasini yaratib beruvchi lingvistik jarayondir. Bunday holatda murojaat nomlari, eng avvalo, subyekt-subyektga munosabati tarzida ko'zga tashlanadi<sup>76</sup>.

Koreya ijtimoiy muhitida muloqotni osonlashtirish maqsadida koreys lavozim nomlarini aytib chaqirish uchun murojaat birliklarini to'g'ri tanlash va ularning madaniy ma'nolari bo'yicha alohida ta'lim zarur. Boshqa mamlakatlar bilan solishtirganda, Koreya sotsial hayoti, jumladan korxona, tashkilot va boshqa ko'plab ishlab chiqarish ob'ektlari qattiqroq reyting tizimiga va o'ziga xos madaniy tuzilmasiga ega, shuning uchun ish joyida ishlatiladigan murojaat birliklarini tanlashda ikki suhabatdoshning munosabatlari va yaqinligiga qarab farqlar bo'lishi mumkin. Buning

<sup>75</sup> 양영희, 사회언어학 관점에서의 국어 호칭어 사적전개 양상연구, 역락, 2015, p.16.

<sup>76</sup> 양영희, 사회언어학 관점에서의 국어 호칭어 사적전개 양상연구, 역락, 2015, p.52.



sababi shundaki, biznes doiradagi murojaat birliklari koreys madaniyati va ijtimoiy lingvistikasining barcha xususiyatlarini o'z ichiga qamrab oladi. Shuning uchun, biznes doiradagi murojaat birliklarini o'rganishda, ushbu etiket birliklarida mavjud bo'lgan madaniy ma'noni: ijtimoiy muhit, dunyoqarash, milliy xarakter, odob tamoyillarini o'rganish muhimdir. Har bir tildagi madaniy farqlar chet tilini o'rganishda to'siq bo'lshi mumkin. Koreys tilida barcha lavozim turlarining o'z murojaat birliklari mavjud bo'lib, koreys tilini o'rganuvchi talabalar ularni koreys millati milliy etiket axloqiy madaniyatning yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishlaridan biri sifatida o'rganmog'i joiz.

Shu o'rinda lavozim etiketi masalasiga qisqacha to'xtalib o'tsak. Etiket ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zini tutish qonun-qoidalarning bajarilishini boshqaradi<sup>77</sup>. Aslida, «etiket» tushunchasi miloddan avvalgi 2,5 - 3 ming yillikda qadimgi Misrda paydo bo'lgan. Etiket (étiquette) atamasi esa XVII asrning oxirida vujudga kelgan<sup>78</sup>. Ammo qadimgi manbalar etiket qoidalari ta'b, rasm-rusm hamda odatlar shaklida azaldan ibtidoiy davrdayoq qabilalarda mavjud bo'lganligini asoslaydi. Bunday qoidalarni to'liq bajarmaslik o'zi yashayotgan jamoa yoki qabilaga xiyonat qilish bilan barobar bo'lgan. Avvalida bunday qoidalalar nafaqat axloqiy, balki huquqiy, iqtisodiy, diniy hamda qon-qarindoshlik munosabatlarini ham qamrab olgan edi. Jamoaning har bir a'zosi unga so'zsiz bo'ysunar edi. Shu tariqa etiket bu davrda mustaqil qoidalari ega bo'limgan, asosan jamoatning ijtimoiy muammolariga bog'liq holda tatbiq etilgan. Ya'ni, bu qoidalalar tabiiy jamoatning talabi bilan vujudga kelgan. Bunday talablarning bajarilishi qabila yoki jamoatning kattalari tomonidan nazorat qilinar edi<sup>79</sup>.

Keyinchalik esa ushbu qoidalalar mustaqil ravishda ajralib chiqib, faqatgina axloqiy me'yorlar darajasida ko'rila boshladi. Qadimgi Sharqda, jumladan, Koreya yarim orolida inson xatti-harakatlarini tartibga soluvchi etiket qoidalari yozma bitiklarda o'z aksini topgan. Shuningdek, bu faqatgina tartib qoidalalar, qonunlar majmui sifatida emas, balki badiiy adabiyotlar orqali ham namoyon bo'lgan.

Bu kabi xatti-harakat me'yorlari koreys jamiyatni taraqqiyotining asosiy yo'nalishi-yashash tarzi, odamlar dunyoqarashi, jamiyatdagi darajalar farqlarini belgilab bergen. Vaqt o'tishi bilan bu qoidalalar keyinchalik turmush etiketi, siyosiy va sotsial etiketning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Koreyada bu qoidalalar butun bir jamiyat bilan birga, o'zaro davlatlarning tashqi munosabatlarini ham belgilab beradi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, koreys jamiyatida biznes muzokaralarda murojaat nomlarini o'z-o'zicha axloqiy anglashning muhim xususiyatlariga hamda axloqiy tamoyillar, me'yorlar, tushunchalarsiz qabul qilib, uni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash bilan kutilgan natijani bermaydi. Bugungi etiket birliklari ijobiy munosabatlarini taminlaydi.

<sup>77</sup> B. Husanov, V. G'ulomov, Muamala madaniyati, T.: Ma`naviyat, 2009, 118b

<sup>78</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi - Toshkent, 2000. 1- jilt

<sup>79</sup> B. Husanov, V. G'ulomov, Muamala madaniyati, T.: Ma`naviyat, 2009, 119b



Biroq, murojaatda yuksak axloqiy bilim va dunyoqarashga ega bo'lmay turib, kutilgan natijaga erishish qiyin.

Murojaatning qoidalariga rioya qilish - odobga, odob - samimiylikka, samimiylik - muvaffaqiyatga olib boradi. Zotan, go'zal murojaat - jamiyat, zamon, ba'zan umumbashariy ahamiyatga ega bo'lib, inson taraqqiyoti uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar asosi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa sifatida nafaqat shaxsni, balki butun bir jamoa taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi<sup>80</sup>. Shu bois murojaat nomlarini bugungi kunga kelib, texnika asri kishisining zamon talablariga javob beradigan madaniy-maishiy turmush tarzini go'zallashtirishga, o'zaro munosabatlar tizimini mustahkamlashga xizmat qiluvchi «kalit» deyish mumkin.

Murojaat nomlari biznes muzokaralarda muomala madaniyatining zamonaviy ko'rinishi sifatida suhbatdoshlar o'rtasida nutq aloqasini o'rnatish va nutq holatiga muvofiq hissiy ijobiy tonallikda aloqani ta'minlash uchun asosiy vosita bo'lib hizmat qiladi. Zamonaviy koreys tilida korxona va tashkilotlar doirasida murojaat birliklari murakkab bo'lganligi bois, uni o'zlashtirish nafaqat koreys tilini o'rganayotgan chet elliklar, balki koreyslarning o'zlari uchun ham bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Buning sababi esa ilgari mamlakatda ijtimoiy tabaqalashish darajasi o'ta kuchli bo'lganligi va har bir tabaqaga xos bo'lgan murojaat nomlari orqali chaqirish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilganligi bilan izohlanadi. Bugungi kunda ham korxona madaniyatini tashkilot tomonidan umumiy bo'lgan belgililar to'plami va atrof-muhitda yashiringan markaziy qadriyatlar yig'indisi belgilab beradi. Ijtimoiy odatlar yoki guruh madaniyatlari tashkilotning odatiy so'zлari yoki harakatlarida aks etadi. Tashkilot a'zolari o'zlarining xatti-harakatlarini korxona muhitiga moslashtiradilar. Shu sababli, tashkilot a'zolari tomonidan qo'llaniladigan til yoki xatti-harakatlar madaniy kontekstda sodir bo'ladi va tashkilot madaniyati tashkilotning xatti-harakatiga ta'sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi<sup>81</sup>. Koreyada qadim zamonlardan beri shakllangan tashkiliy madaniyat kuchli ichki va tashqi sezgi kuchiga ega. Shuning uchun suhbat avvalida ishlatiladigan murojaat nomini tanlashning o'zidayoq suhbatning maqsadi va emotsiyasi ochilib qoladi. Shu bois murojaat so'zлari va birliklarini o'rganishda unvonlardan foydalanish va o'rinni qo'llashga ta'sir etuvchi koreys ijtimoiy madaniyatini o'rganish talab etiladi.

Tarixan Koreya chorvachilik sanoati rivojlangan, qishloq xo'jaligiga urg'u bergen davlatdir. Ilgari odamlar og'ir muhitga qarshi kurashish yoki oziq-ovqat ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun guruh bo'lib to'planib, dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Guruh ichida maxsulot ayirboshlash yoki kooperativ dehqonchilik orqali turmush sifati yaxshilanganligi sababli, tashkiliy madaniyat asta-sekin shakllana borgan. Shu bois koreys xalqining an'anaviy dunyoqarashida tashkilotning o'ziga xosligi ko'p bora ta'kidlanadi. Zamon rivojiga qaramay tashkilot madaniyatining

<sup>80</sup> B. Husanov, V. G'ulomov, Muamala madaniyati, T.: Ma`naviyat, 2009, 125b

<sup>81</sup> 양영희, 사회언어학 관점에서의 국어 호칭어 사적전개 양상연구, 역락, 2015, p.38.



an'anaviy mavqeyi hozirgi zamon odamlari hayotida hamon saqlanib qolgan. Hozirgi zamonaviy Koreya ish o'rinalarini bir-biriga ko'rinas rishta orqali o'zaro bog'langan odamlar guruhi tomonidan boshqariladigan yirik tashkilot sifatida ko'rish mumkin. Korxona a'zolari tomonidan qo'llaniladigan til tashkilot ichidagi do'stlik, hamkorlik va foyda munosabatlari kabi omillar asosida farqlanadi. Xususan, tinglovchida bиринчи taasurot qoldiradigan murojaat nomlari ish joyining tashkiliy madaniyati ta'sirida emas, balki ijtimoiy muhit ta'sirida tanlangan.

Bundan tashqari, Koreya kompaniyalarining tashkiliy madaniyatida «faoliyat yurituvchi» eng asosiy qadriyat bu «ierarxik tizim»dir. Koreya korporativ madaniyatining o'ziga xos xususiyati sifatida Shin Yu-geun (1992) va Cho Young-ho (1995) ham ierarxiya Koreya kompaniyalarining madaniy «DNK»si ekanligini ta'kidlab o'tishgan<sup>82</sup>. Lavozim orqali murojaat qilishning ahamiyati shundaki, bunda boshqa murojaat so'zlariga qaraganda pozitsiya va maqomga ko'proq ahamiyat berilib, hiss tuyg'ular yaqqol ifodalanadi.

Hozirgi vaqtida demokratlashtirish natijasida jamiyatdagi ijtimoiy chegaralar olib tashlanib, har bir insonning muloqot doirasi sezilarli darajada kengayganligi bois murojaat nomlarini to'g'ri tanlash masalasi ancha qiyinlashdi. Qolaversa, Koreya ko'p asrlar davomida yakkalanib qolgan davlat bo'lganligiga qaramay, hozirda u dunyoning ko'plab davlatlari bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Bu esa nafaqat uning madaniyatiga, balki tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bu o'zgarishlarning barchasi murojaat nomlari tizimiga ham ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Koreys tilshunoslari murojaat nomlari haqida so'z yuritar ekan, ularni ikki yirik turga ajratadilar:

1) murojaat birlik so'zları - ularning asosiy vazifasi tinglovchiga murojaat qilish, uni nutqni idrok etishga undash;

2) belgilari - uchinchi shaxs haqida suhbatda ishlataladigan va ma'lum sharoitlarda murojaat nomlari vazifasini bajarishga qodir bo'lgan so'zlar.

Boshqa tillardan farqli o'laroq, koreys tili juda murakkab so'z va murojaat birliklari tizimiga ega va ular turli yo'llar bilan rivojlanadi. Suhbatdoshga murojaat qilish shakllarini tanlashda quyidagi asosiy omillarni hisobga olish lozim:

- vaziyat turi (rasmiy, norasmiy, yarim rasmiy);
- suhbatdoshlarning tanishlik darajasi (begona, notanish, taniqli);
- suhbatdoshga munosabat (hurmatli, o'ta hurmatli, neytral-odobli, tanish, do'stona-norasmiy va boshqalar);
- so'zlovchining xususiyatlari;
- qabul qiluvchining xususiyatlari;
- aloqa joyi (uyda, ko'chada, yig'ilishda va hokazo);
- muzokaza vaqtisi.

<sup>82</sup> Воровита Л.А. О взаимодействии русской и корейской культурных традиций как основе обучения корейскому языку // Лингводидактические проблемы обучения иностранным языкам. Межвуз. сб. Вып. 2. СПб., 2004, С. 54.



Turli tillarda murojaat nomlaridan foydalanish, qoida tariqasida, shaxs olmoshlarini qo'llash bilan amalga oshiriladi. Biroq, koreys tilidagi murojaat nomlari tizimidagi olmoshlarning ahamiyatini ko'rib chiqishdan oldin, koreys tilida ushbu tushunchaga kiritilgan ma'nodagi shaxs toifasi o'zbek tilida ma'lum emasligini eslamaslik mumkin emas. Biroq koreys tilida bir guruh shaxs olmoshlari mavjud bo'lib, ularning funktsional xususiyati u yoki bu xushmuomalalik darajasini ifodalaydi. Shu bilan birga koreys tilida olmoshlarning roli bir qator holatlar bilan cheklangan:

a) koreys tilining shaxs olmoshlari tizimida aslida II-shaxsning neytral olmoshlari mavjud emas va III-shaxsning faqat bitta odob olmoshlari mavjud;

b) murojaat nomlari vazifasidagi II-shaxs olmoshlari gap va ifoda uslubiga salbiytas'sir ko'rsatishi mumkin.

Koreys tilida aslida olmoshlardan murojaat nomlari sifatida foydalanilmaydi. Ko'pincha familiya va ismlar yoki faqat odamlarning familiyasi orqali suhbatdoshga murojaat qilinadi. Quyida koreys tilidagi murojaat nomlarini leksik qayd qilishning asosiy usullarini sanab o'tamiz.

### **1. Ism va familiya.**

Familiyalardan murojaat birliklari vazifasida foydalanishning bir necha usullari mavjud bo'lib keng uchraydigan holatlaridan asosiyatlari bu:

**1)familiya (va ismi) + lavozimi, unvoni;** Masalan,

김종일 선생 (*ustoz Kim Chong-il*)

이주영 부수상 (*Bosh vazir o'rinnbosari Li Ju-young*)

**2) familiya (va ism) + nominal qo'shimchalar (masalan, -씨);**

M: 김씨, 이번 휴가는 어떻게 지내시렵니까? (*Janob Kim, bu ta'tilingizni qanday o'zkazayapsiz?*)

**3) familiya (va ism) + lavozim + nominal qo'shimchalar (masalan, -님 -께서);**

M: 유 사장님께서 직접 말씀 하시면서 감사하시던데요. (*Janob direktor Yuning shaxsan o'zlari tashakkur bildiryaptilar.*)

Familiya va ismlar yoki faqat familiyalarni o'z ichiga olgan birikmalardan foydalangan holda suhbatdoshga murojaat qilishning zamirida hurmatli munosabat masalasi yoritiladi.

Shuningdek, chet elliklar uchun koreys tilining eng qiyin va tushunarsiz bo'lgan xususiyatlaridan biri bu oila davrasida qo'llaniladigan «할아버지», «할머니», «어머님», «아버님», «형님», «오빠», «누님», «언니» va shu kabi boshqa murojaat birliklari turining ko'pligidir.

Koreys tilining yana bir e'tiborli jihatni bu lavozim va unvonlarga oid so'zlarga yoki biror bir kasb egasining familiyasiga 님 yoki 께서 qo'shimchalarini qo'shish orqali ham murojaat qilish holatlari ommalashganlidir. Masalan,



**과장 + 님** (umumi bo'lim boshlig'i),

**대리 + 님** (mudir)

**선생+님** (o'qituvchi),

**선배+님** (yoshi kattaroq va tajribaliroq bo'lgan inson) va hokazo.

Zamonaviy koreys tilida korxona lavozim unvonlari ko'pincha murojaat nomlari sifatida ishlatiladi. Bunday murojaatlar asosan mansabdor shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan,

**수상님** (*bosh vazir janoblari*),

**대사님** (*elchi janoblari*),

**부장님** (*director o'rribbosari*). Biroq suhbatdoshlar orasida yaqin munosabat kuzatilmasa, unda lavozim unvonlarini murojaat shaklida norasmiy sharoitda qo'llash odatiy holdir. Masalan,

**수상** (*bosh vazir*),

**대사** (*elchi*),

**부장** (*director o'rribbosari*).

Kasb va mutaxassislik nomlari ham murojaat birliklari sifatida keng qo'llaniladi, Masalan:

**작가** (*yozuvchi*),

**의사** (*tabib*),

**배우** (*rassom*),

**운전수** (*haydovchi*) va boshqalar.

Koreys tilida turli vaziyatlarda nutq xatti-harakatlari normalarini tartibga soluvchi juda ko'p sonli murojaat nomlari mavjud. Koreys tilining murojaat tizimi boy va shu bilan bir qatorda murakkab bo'lib, chuqur ildizga ega. Ammo zamonaviy jamiyatda so'ngi paytlarda an'anaviy murojaat shakllarida universallashuv jarayoni kuzatilib, rahbar hodimlarga erkak yoki ayoligiga qarab, shuningdek, mavqega ko'ra murojaat birliklari sifatida qarindoshlik atamalari qo'llanila boshlandi<sup>83</sup>.

Notanish odamlarga nisbatan ular norasmiy sharoitda qo'llaniladi va suhbatdoshga nisbatan do'stona, norasmiy munosabatni bildiradi. Murojaatlar toifasidagi bu o'zgarishlarning barchasi so'nggi paytlarda Janubiy Koreyada sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirdi.

<sup>83</sup>이 익섭, 이상역, 채완 Op. cit. C. 249-273



Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib biznes muzokaralarda qo'llaniladigan koreys tilidagi murojaat shakllarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

1. Koreys tilida nutq vaziyatiga mos keladigan murojaat shakllarini tanlashda ierarxiya belgisi muhim hisoblanadi. Vaziyatning rasmiyatchilik darjasи, shaxslararo munosabatlar va suhbatdoshlarning jinsi ushbu tilda murojaatdan foydalanishga kuchli ta'sir qiladi.
2. Rasmiy murojaatlardan foydalanish tilda nutqning umumiy hurmat va odob darajasining yuksakligi bilan ifodalanib, bu sharaflи va samimiy munosabatlarning izchil qo'llanilishi orqali ifodalanadi.
3. Murojaatlarning eng keng tarqalgan shakllari: «familiya+lavozim, unvoni» formulasi bo'yicha murojaatlardir. Biroq, koreys tilida xushmuomalalik bu formulaga nominal odobi qo'shimchalar «님 va 께서»ni qo'shish orqali kuchaytiriladi, bu boshqa tillarga, jumladan o'zbek tiliga xos bo'lмаган holat.
4. Koreys tilida «씨» qo'shimchasi yordamida suhbatdoshga murojaat qilish adresatning lavozimi yoki unvoni haqida hech qanday ma'lumot yo'qligida mumkin.
5. Suhbatdoshga olmoshlar yordamida murojaat qilishga ruxsat berilmaydi. Koreys tilida II-shaxs olmoshlari yo'qligi sababli olmoshlarning oddiy shakllarini murojaat nomlari sifatida ishlatmaydilar. Murojaat vazifasidagi olmoshlar gap uslubiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Маслова В. А. Современные направления в лингвистике. – Москва : Академия, 2007. – 272 с.
2. 박갑수, 국어호칭의 실상과 대책, 국어생활 제19호, 국립국어연구원, 1989.;
3. 이익섭. 국어 문법론 강의. 공저 학연사. 1999..(I Ik Sop, Koreys tili nazariy grammatikasidan ma'ruzalar. 1999);
4. 박정운, 한국어 호칭어 체계, 사회언어학, 한국사회언어학회, 1997.,507~527pp
5. Aripova A. Notiqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari. Avtoreferat. – Toshkent, 2002. – 73 b.
6. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. -Toshkent: O'zbekiston, 1980. – 40b.
7. Turdieva Kh. Comparison of Politeness in Persian and Uzbek speech // Journal of Word Art. Tashkent, 2019. - №4. – P. 59-66. (10.00.00; №31). <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297>



8. 이익섭. 국어 문법론 강의. 공저 학연사. 1999..(I Ik Sop, Koreys tili nazariy grammatikasidan ma'ruzalar. 1999);